




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-iyun)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari b'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 4605,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,9 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'shining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 16,1 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 3,3 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 1,6 % ga o'sishi kuzatilib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 4,4 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

2019-yil yanvar-iyun



2020-yil yanvar-iyun



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,3 mldr.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,03 % ini tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4374,8 mldr.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,9 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 43,4 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 22,3 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 16,8 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 43,4 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 22,3 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -16,8 %.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 200,4 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 116,1 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi. Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni, suv yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash 64,0 %, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizasiya qilish 35,1 % ni tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	224,5	195,1	- 29,4
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	72,1	59,7	- 12,4
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	23044	26687	3643
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	3836	3478	- 358
Aroq – ming litr:	433,0	201,2	- 231,8
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	12,2	7,9	- 4,3
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	550,0	357,4	- 192,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna:	40049,1	46231,5	6182,4
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna:	9778,8	6438,0	- 3340,8
Xo'jalik sovuni – tonna:	4144	2318	- 1826
Paxta tolasi – tonna:	30646,4	37752,8	7106,4
Paxta chigit – tonna:	48330,4	61286,5	12956,1


Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 29,4 mln.kVtsga, issiqlik energiyasi 12,4 ming gkalga, maxsus yengil avtomobillari 358 donaga, aroq 231,8 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 192,6 ming litrga, tozalangan o‘simlik yog‘i 3340,8 tonnaga, xo‘jalik sovuni 1826 tonnaga kamaygan.

Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yumshoq bug‘doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit sezilarli darajada oshgan.




Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

2020-yil yanvar-iyun



2019-yil yanvar-iyun



Yuqori texnologiyali
O'rta-yuqori texnologiyali

Quyi texnologiyali
O'rta-quyi texnologiyali

2019-yil yanvar-iyun oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yil yanvar-iyun oylarida bu ko‘rsatkich 6,5 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 40,5 foizdan, 41,7 foizga oshgan bo‘lsa, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 48,3 foizdan 46,8 foizga yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 foizdan, 0,01 foizga, kamayish kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,2 mlrd.so‘mlik (2019-yil yanvar-iyun oylarida 0,7 mlrd.so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2154,8 mlrd.so‘mlik (1829,7 mlrd.so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 299,3 mlrd.so‘mlik (224,3 mlrd.so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 1920,4 mlrd. so‘mlik (1534,8 mlrd.so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	4605,7	103,7
Urganch shahri	902,5	94,0
Xiva shahri	71,3	108,3
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog'ot tumani	137,4	102,8
Gurlan tumani	199,6	103,1
Qo'shko'pir tumani	94,3	107,1
Urganch tumani	145,0	103,7
Hazorasp tumani	146,3	112,0
Tuproqqa'l'a tumani*	2063,9	106,1
Xonqa tumani	306,8	100,0
Xiva tumani	95,2	121,8
Shovot tumani	149,3	105,9
Yangiariq tumani	155,5	135,7
Yangibozor tumani	138,6	145,7


Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahri, Tuproqqa'l'a, Urganch, Gurlan va Shovot tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

***Tuproqqa'l'a tumani – 2020 yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, Yangibozor tumanida 145,7 %, Yangiariq tumanida 135,7 %, Xiva tumanida 121,8 %, Hazorasp tumanida 112,0 %, Xiva shahrida 108,3 %, Qo'shko'pir tumanida 107,1 % va Tuproqqal'a tumanida 106,1 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2019-YIL YANVAR-IYUN OYLARIGA NISBATAN, % DA**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Tuproqqal'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 44,8 %), Urganch shahri (19,6 %), Xonqa (6,7 %), Gurlan (4,3 %) hamda Yangiariq (3,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,1 %), Qo'shko'pir tumani (2,0 %) va Xiva shahri (1,6 %)ga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)**

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	4605,7	3792,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1,3	1,2
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	1,3	1,2
Qayta ishslash faoliyati	4374,8	3589,5
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	643,8	619,7
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	130,9	106,7
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1026,3	700,9
Kiyim ishlab chiqarish	20,4	10,7
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,2	2,8
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	4,4	4,6
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	19,4	10,1
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,6	0,8


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	26,6	16,0
Asosiy farmasevtika	0,1	0,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	26,2	26,3
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	164,5	101,7
Metallurgiya sanoati	13,2	16,2
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	87,6	70,6
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	13,4	14,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	117,1	145,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1997,5	1653,4
Mebel ishlab chiqarish	25,5	21,2
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	46,8	57,6
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	7,4	9,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	200,4	177,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	29,1	24,1




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2858,1 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 654,1 mlrd.so'mni, alkogol ichimliklar 7,9 mlrd.so'mni va 2196,1 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 86,2 foiz, 54,5 foiz va 117,4 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,1 foizni (2019 yil yanvar-iyun oylarida 69,7 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ihslab chiqarish 132,9 mlrd.so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 1752,1 mlrd.so'mni va 311,1 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2858,1	100	108,1
Urganch shahri	476,5	16,6	88,0
Xiva shahri	39,6	1,4	91,3
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	60,8	2,1	113,1
Gurlan tumani	56,9	2,0	92,1
Qo‘shko‘pir tumani	29,5	1,0	72,2
Urganch tumani	105,7	3,7	104,8
Hazorasp tumani	40,4	1,4	71,2
Tuproqqa'l'a tumani	1771,9	62,0	125,2
Xonqa tumani	108,8	3,8	96,3
Xiva tumani	33,2	1,2	58,0
Shovot tumani	59,6	2,1	90,8
Yangiariq tumani	33,7	1,2	63,5
Yangibozor tumani	41,5	1,5	102,1

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri kelib, 62,0 % ni, shuningdek, Urganch shahri 16,6 % ni, Urganch tumani 3,7 % ni, Xonqa tumani 3,8 % ni hamda Bog‘ot tumani 2,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumani (125,2 %), Bog'ot tumani (113,1 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-iyun oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	654,1	100	86,2
Urganch shahri	253,6	38,8	82,5
Xiva shahri	22,4	3,4	102,4
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	49,0	7,5	119,8
Gurlan tumani	27,7	4,2	76,8
Qo'shko'pir tumani	16,7	2,6	63,3
Urganch tumani	74,3	11,4	114,6
Hazorasp tumani	23,1	3,5	65,3
Tuproqqa'l'a tumani	8,6	1,3	59,2
Xonqa tumani	75,4	11,5	99,5
Xiva tumani	19,4	3,0	60,0
Shovot tumani	44,6	6,8	94,9
Yangiariq tumani	18,1	2,8	63,0
Yangibozor tumani	21,2	3,2	76,5

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 38,8 %, shuningdek, Xonqa tumani 11,5 % ni, Urganch tumani 11,4 % ni, Bog‘ot tumani 7,5 % ni, Shovot tumani 6,8 % ni, Gurlan tumani 4,2 % ni hamda Hazorasp tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumani (119,8 %), Urganch tumani (114,6 %) va Xiva shahri (102,4 %)ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar- iyun oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2196,1	100	117,4
Urganch shahri	215,0	9,8	97,9
Xiva shahri	17,2	0,8	80,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	11,9	0,5	92,0
Gurlan tumani	29,2	1,3	113,6
Qo‘shko‘pir tumani	12,8	0,6	88,4
Urganch tumani	31,4	1,4	87,2
Hazorasp tumani	17,2	0,8	81,0
Tuproqqal'a tumani	1763,3	80,3	125,9
Xonqa tumani	33,4	1,5	89,9
Xiva tumani	13,8	0,6	55,3
Shovot tumani	15,0	0,7	80,4
Yangiariq tumani	15,6	0,7	64,0
Yangibozor tumani	20,3	1,0	157,0

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 80,3 %, shuningdek, Urganch shahri 9,8 % ni, Xonqa tumani 1,5 % ni, Gurlan tumani 1,3 % ni hamda Urganch tumani 1,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (117,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumani (157,0 %) va Tuproqqa'la tumani (128,5 %) ni tashkil qildi.




Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan Tuproqqal'a tumanida 125,2 % ga, Bog'ot tumanida 113,1 % ga, Urganch tumanida 104,8 % ga va Yangibozor tumani 102,1 % ga sezilarli darajada o'sgan.

Qolgan barcha tumanlarda o'sish sur'ati 100 % dan kamayganini ko'rish mumkin.

Masalan, Qo'shko'pir tumanida 72,2 %, Hazorasp tumanida 71,2 %, Yangiariq tumanida 63,5 % va 58 % Xiva tumaniga to'g'ri keladi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar- iyun oylarida, ming so‘m)**


Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2460,9	102,0	1527,1	106,4
Urganch shahri	6258,8	92,6	3304,4	86,8
Xiva shahri	772,8	106,7	428,9	90,0
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot tumani	836,5	101,0	370,0	111,1
Gurlan tumani	1347,9	101,6	384,2	90,7
Qo‘siko‘pir tumani	548,5	105,3	171,8	71,0
Urganch tumani	730,3	101,8	532,6	102,9
Hazorasp tumani	756,6	109,9	208,8	69,9
Tuproqqa’l tumani	37466,8	105,0	32166,7	123,9
Xonqa tumani	1648,9	98,5	584,9	94,9
Xiva tumani	656,0	119,8	228,4	57,0
Shovot tumani	880,1	104,2	351,5	89,3
Yangiariq tumani	1342,7	133,6	291,3	62,5
Yangibozor tumani	1589,8	143,5	476,1	100,6

Yuqoridagi tahlily jadvalga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 2460,9 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,0 foizga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-iyun oylarida Tuproqqa’l tumani 31697,3 ming so‘mdan 2020-yil

yanvar-iyun oylarida 37466,8 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 852,9 ming so‘mdan 1342,7 ming so‘mga, Shovot tumanı 718,0 ming so‘mdan 880,1 ming so‘mga, Xiva tumanida 396,6 ming so‘mdan 656,0 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (37466,8 ming so‘m), Urganch shahrida (6258,8 ming so‘m)ga o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2460,9 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 1527,1 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,4 foizga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-iyun oylarida Tuproqqa'l'a tumani 25962,9 ming so‘mdan 2020 yil yanvar-iyun oylarida 32166,7 ming so‘mga, Urganch tumani 517,8 ming so‘mdan 532,6 ming so‘mga o‘sGANI kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-iyun oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Bog'ot tumani (71,2 %), Urganch tumani (69,8 %), Xonqa tumani (55,5 %), Gurlan tumani (52,6 %)ni tashkil qildi.

Viloyatda yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1278,7 mlrd.so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,8 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida


sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Tuproqqał'a tumani (1,8 %), Yangiariq tumani (23,2 %), Yangibozor tumani (29,9 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 538,4 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,7 % ni tashkil etdi.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar (2020-yil 1-iyul holatiga ko‘ra)

**Yangi tashkil etilgan
korxonalar soni, birlikda:**



**Faoliyat yuritayotgan
korxonalar soni, birlikda:**



Viloyatda 3,3 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1,6 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 50,4 %) Urganch shahriga, 675 tasi (20,6 %), Urganch tumaniga 388 tasi (11,9 %), Xiva shahriga, 294 tasi (9,0 %), Xonqa tumaniga 289 tasi (8,8 %), Xiva tumaniga 265 tasi (8,1 %) to'g'ri kelmoqda.

2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 597 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo'lgan Urganch shahrida 97 ta, Qo'shko'pir tumanida 65 ta, Xiva shahrida 63 ta, Xonqa tumanida 56 ta, Urganch tumanida 54 ta va 51 ta Yangibozor tumanida tashkil etilgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo'yicha 32 ta loyiha mavjud bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar-mart oylarida 40,5 mlrd.so'mlik import o'rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 200 ming (AQSH) dollarlik mahsulot eksport qilinib, 222 ta yangi ish o'rnlari yaratilgan.

Dastur bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Gurlan tumanida 2 ta loyihada 0,4 mlrd.so'mlik, Urganch tumanida 4 ta loyihada 4,2 mlrd.so'mlik, Hazorasp tumanida 2 ta loyihada 5,4 mlrd.so'mlik, Tuproqqa'l'a tumanida 3 ta loyihada 20,9 mlrd.so'mlik, Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 3,1 mlrd.so'mlik, Urganch shahrida 14 ta loyihada 6,5 mlrd.so'mlik va Xiva shahrida 2 ta loyihada 0,1 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	<i>2020-yil yanvar-iyun</i>	<i>2019-yil yanvar-iyun</i>
Loyihalar soni, birlik	32	16
Korxonalar soni, birlik	23	8
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	40,5	12,1



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

	2020-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun
Eksport qilingan mahsulot hajmi mln AQSH dollar	0,2	0,0
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik	222	0



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo‘limi.

Aloqa telefoni: (62) 224-64-99